

УО'К: 622.47

doi 10.5281/zenodo.10720447

KARYERDA MARKSHEYDERLIK PUNKITINING KUZATUVINI ANIQLIGI VA DAVOMIYLIGINI BAHOLASH



Nomdorov Rustam Uralovich

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti "Konchilik ishi" kafedrası,
t.f.d.(PhD) dotsenti, Qarshi, O'zbekiston
E-mail: rustumnomdorov@mail.ru
ORCID ID: 0009-0000-6987-8995



O'rinnov Oybek O'tkir o'g'li

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti "Marksheyderlik ishi"
yo'naliishi talabasi, Qarshi, O'zbekiston
E-mail: oordinov81@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada karyerda kuzatuv stansiyalarini faol bortlarda va pog'onalarda reperlar yordamida meyoriy tartibida va konstruksiyasi berilgan bo'lib bu karyer bortining va pog'onalarining xavfsiz va barqaror ishlashini taminlaydi va shu bilan birga karyer borti cho'kishi, nurashi, ko'chishini va siljishlarini oldindan baholash imkonini beradi. Maqolada misol tariqasida Qalmoqir karyeri sharoiti uchun davriylik yiliga 1 marta o'lhash ishlari keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: karyer bortini va pog'onalarini cho'kishi, nurashi, ko'chishi va siljishi, kuzatuv punkti, deformatsiyalanish, reperlar konstruksiyasi, kuzatuv stansiyasi, grunt ni deformatsiyalanishi.

ОЦЕНКА ТОЧНОСТИ И ПРОДОЛЖИТЕЛЬНОСТИ СЛЕЖЕНИЯ ЗА МАРКШЕЙДЕРСКИМ ПУНКТОМ В КАРЬЕРЕ

Номдоров Рустам Уралович

Кафедра "Горное дело" Кашиинского инженерно-экономического института, т.ф.д (PhD) доцент, Кашии,
Узбекистан

Уринов Ойбек Уткир угли

Студент Кашиинского инженерно-экономического
института по направлению "Маркшейдерское дело", Кашии,
Узбекистан

Аннотация. В статье дается критериальный порядок и конструкция станций слежения за карьером с использованием рэперов на активных досках и ступенях. Это обеспечивает безопасную и стабильную работу карьерного борта и ступеней, а также позволяет заранее оценить проседание, выветривание, перемещение и смещение карьерного борта. В статье в качестве примера приведены работы по измерению периодичности 1 раз в год для условий калмыцкого карьера.

Ключевые слова: опускание, выветривание, перемещение и смещение карьерного борта и ступеней, наблюдательный пункт, деформация, конструкция репера, станция наблюдения, деформация грунта.

ASSESSMENT OF THE ACCURACY AND DURATION OF TRACKING A MINE SURVEYING POINT IN A QUARRY

Nomdorov Rustam

Karshi Engineering-Economics Institute, Department of "Mining",
Associate Professor of Ph.D., Karshi, Uzbekistan

Urinov Oybek

Student of "Marksheideriya" department Karshi Engineering-
Economics Institute, Karshi, Uzbekistan

Abstract. The article provides the criteria for the order and design of quarry monitoring stations using rappers on active boards and steps. This ensures the safe and stable operation of the quarry board and steps, and also allows for advance assessment of subsidence, weathering, movement and displacement of the quarry board. The article as An example shows work on measuring the frequency once a year for the conditions of the Kalmyk quarry.

Keywords: subsidence, weathering, movement and displacement of the quarry side and steps, observation post, deformation, benchmark design, observation station, soil deformation.

Kirish. Karyerning faol zonalarida yani deformatsiya yuqori bort yoki pog'onaga kuzatuv punkitlarini o'rnatamiz. Bu kuzatuv punkitlari yordamida karyer bortini va pog'onalarni siljish va cho'kish holatlarini kuzatib borish imkonini beradi. Kuzatuvlarni aniqligi va davomiyligi kuzatuvlar seriyasi orasidagi intervalda deformatsiyalanish jarayonini o'zgarmasligi yoki uni o'zgarish lahzasini qayd etish haqida fikr yuritish imkonini ta'minlashi shart.

Tarmoqlarni qurish usulini qiyosiy baholash uchun me'zonlar sifatida qatlamlarni ehtimolli siljishining yo'nalihsida punktlar o'rnini xatoligini qabul qilish lozim bo'ladi. Siljishning ehtimolli yo'nalihi, aniqlik tahlili uchun, kuzatuv sxemasini bortlarni yo'naltirilishiga perpendikulyar qabul qilish lozim bo'ladi.

Adabiyot tahlili va usullari. Yuqori aniqlikdagi marksheyderlik kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, bunda ba'zi sabablarga ko'ra reperni holatini aniqlashning o'rtacha kvadratli xatoligi, kon ishlarini ta'siri bilan bog'liq bo'limganda 20-25 mm tashkil

etadi. Shuning uchun karyerlar sharoitida izohlashga beriladigan poligonometriya punktining holatini o'rtacha kvadratli aniqlash $m_{\Delta S} = 20 \text{ mm}$ ga teng deb qabul qilamiz.

U holda kuzatuvni bitta seriyasida reper holatini aniqlashning xatoligi quyidagini tashkil etadi

$$m = \frac{m_{\Delta S} \cdot \sqrt{2}}{2} = 15 \text{ mm.}$$

Boshlang'ich kuzatuv qaytadan o'rnatilayotgan stansiyalarda ikki martadan kam bo'limganda o'lchash ishlari bajariladi, bu aniqlikni oshirish imkonini beradi va dastlabki reperlarni aniqlashning ishonch-liligi hamda reper holatini aniqlashning asl qiymatlarga ko'ra xatoliklarini belgilaydi.

Reperlar konstruksiyasini oddiy barpo etish lozim bo'ladi. Ularni o'rnatish usullari quyidagilarni ta'minlashi zarur:


- reperni tog' jinslari bilan mustah-kam bog'lash, chunki reperni siljishi tog' jinslarini siljishi bilan aynan mos kelishi kerak;
- reperlarni doimiy xizmat qilish muddatida, ularni holatini saqlanishi va o'zgarmasligi;

- reper kallagi (yarim sfera) bo'ylab belgilangan markazni ochiqligi;
- tog' jinslarining muzlashi va erishi hamda jinslarni namligi va haroratini mavsumiy o'zgarishi sharoitlarida reperning turg'unligi.

Reperni uzoq muddatga davomiy xizmat qilib berishi uchun ularni o'rnatish quyidagi tarzda amalga oshirilishi tavsiya etiladi: diametri 160-300 mm o'lchamda burg'ilangan skvajinaga muzlash zonasini pastki chuqurligigacha 0,5 metrغا metall shtir yoki diametri 30-50 mm bo'lgan truba betonlanadi. Cementli aralashmani skvajinalarni faqat 0,4-0,5 metrغا quyi qismiga quyiladi (1-rasm).

markaz hosil qilinadi. Metall shtirni yer tuproq bilan bir birini tortishishini kamaytirish uchun unga texnik yog' surkaladi va polietilen plyonka bilan o'raladi. Skvajina devori va shtir orasidagi bo'shliq betonli yostiqcha yuqorisi qum yoki shlak bilan to'ldiriladi hamda mustahkamlab mahkamlab qotiriladi.

Reper tagida muzlashdan yaxlagan yostiqchani hosil bo'lishini oldini olish uchun kapillyar xususiyatga ega bo'lgan (shlak, yirik donador qum va boshqalar) materialdan tayyorlangan g'ovakli asos to'shalishi tavsiya etiladi. Ayozli shishib ketishni ta'sirini kamaytirish va reper shtirini oxirgi uchini saqlanishini oshirish



a – betonli langar bilan chuqurlashtirilgan; b – qoqilgan chuqurlashtirilgan; v – betonlashtirilgan kallak bilan qoqilgan; 1 qum; 2 – temirli shtir; 3 – beton; 4 – izolyatsiyali material

1-rasm. Kuzatuv stansiyalaridagi reperlarni turlari

Reperni metall sterjenining yuqorigi uchini yarimsfera holiga keltiriladi, ya'ni unga diametri 2 mm va chuqurligi 4-5 mm dan katta bo'lmagan teshik ko'rinishdagi

uchun yer yuzasini pastki qismini 20-30 sm ga chuqurlashtirish lozim bo'ladi.

Gruntni deformatsiyalanishi uni namligi o'zgarishidan yuzaga kelishi evaziga

reperni vertikal siljishidan qochish uchun, reperlarni o'rnatish chuqurligi 1,5 metrdan kam bo'lmasligi shart.

Quvvati 1,5-2 metrdan katta bo'lgan bir joyda to'plangan to'rtlamchi cho'kindi qatlam bo'lganligi uchun xizmat qilish muddati 3-5 yilgacha bo'lishiga qoqilgan reperlarni qo'llash tavsiya etiladi (1 b,v-rasm). Ularni uzunligini yer tuproqni quvvatiga muvofiq holda 1,2-1,5 metrdan 2 metrgacha va undan katta bo'lganda tanlab olinadi.

Sochma bo'sh yer tuproqda qoqilgan reperlarni uzunligini mustahkamlashni mahkamligini oshirish uchun uni 2-2,5 metrgacha oshiriladi. Alovida holatlarda yuqori qismini betonlashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi (1 v-rasm). Shishib ketishini oldini olish uchun reper betondan himoya qilinadi. Ushbu maqsadda unga texnik yog' surkaladi va polietilen pylonka yoki qora qog'oz bilan o'rabi quyiladi.

Qoyali jinslarga reperlarni qoqish uchun chuqurlik burg'ilab quyiladi, ya'ni unga diametri 20-30 mm va uzunligi 30-50 mm bo'lgan metall shtir betonlashtiriladi.

Karyer bortlarini deformatsiyalanishini poligonometriya va kertma belgi usullar yordamida kuzatuv olib borishda, tayanch punktlarni o'rnatishda reper konstruksi-

yasini qo'llash maqbul hisoblanadi (1, a-rasm), bu punktlarni uzoq muddatga saqlanishini ta'minlaydi. Punktni langar bilan quyi qismini muzlagan chuqurdan pasti betonlashtiriladi. Reperi shishib ketishini oldini olish uchun yer tuproqdan himoya qilinadi.

Karyer perimetri bo'y lab ishchi punktlarni joylashtirishda ularni ostida piramida ko'rinishidagi tashqi belgilari o'rnatilgan bo'lishi mumkin.

Qaytadan o'rnatilgan stansiyalarda dastlabki kuzatuvlar yer tuproqga reperlarni qoqishdan keyin bir muncha vaqt o'tgandan so'ng bajariladi. Reperlarni barqarorlash-tirish uchun quyidagi vaqt davomiyligi tavsiya etiladi: qoqilgani 10 sutka, skvajinalarda betonlashtirilgani 25-30 sutka.

Xatolikni haqiqiy qiymatlaridan kuzatish metodikasini kelajakda qo'llash yoki uni o'zgarishi haqidagi masalalar o'z yechimini topadi.

Tadqiqot natijalari. Davomiy stansiyalarda navbatdagi kuzatuvlarni davriyili karyerlarda kon ishlarini pasayishining tezligi va bortlarni turg'unlik darajasiga bog'liq bo'ladi. Masalan, Qalmoqir karyeri sharoiti uchun davriyilik yiliga 1 marta qabul qilinadi. Reperlar siljishining tezligini belgilashda 0,1 mm/sut katta bo'lgan defor-

1-jadval

| Siljish tezligi, mm/sut. | Kuzatuvni bitta seriyasini davomiyligi, soat | Kuzatuv davriyili, sut. |
|-----------------------------|--|----------------------------|
| 0,1 | 120 | 730 |
| 0,5 | 144 | 150 |
| 1,0 | 72 | 75 |
| 2,0 | 36 | 40 |
| 5,0 | 15 | 15 |
| 10,0 | 7 | 8 |
| 20,0 | 2 | 4 |

matsiyalanish uchastkasida vaqtinchalik kuzatuv stansiyalari o'rnataladi, bunda kuzatuvlar 1-jadvalga mos ravishda belgilanadi.

Ishchi reperlarni aniqlashning xatoliklarini hisoblashni uzunlikni svetodalnomer yordamida o'lchashdagi xatolik hisobiga bajaramiz.

Hisoblash shartlari:

- svetodalnomer yordamida uzunlikni o'lchash to'ri va teskari tartibda amalga oshiriladi;
- bitta o'lchashni o'rtacha kvadratli xatoligi $m = \pm 8 \text{ mm}$;
- siljishda tomonlar soni $n_x = 4$.

O'rtacha kvadratli xatolikni o'rta arifmetikligi quyidagi formula bo'yicha topiladi:

$$M = \frac{m}{\sqrt{n}} = \frac{8}{\sqrt{2}} = 5,6 \text{ mm}, \quad (1)$$

bu yerda n – o'lchashlar soni.

Teng aniqlikda o'lchashda tomonlar yig'indisining o'rtacha kvadratli xatoligi quyidagiga teng

Qanchalik poligonometrik siljish karyer bortiga deyarli parallel quylgan bo'lsa, unda m_s vektor proeksiyasi yuz berishi mumkin bo'lgan siljish yo'nalishiga $0,25 \cdot m_s$ ko'p bo'lmasagan o'lchamda bo'ladi.

U holda siljishni m_{AS} maksimal talab etilgan qiymati burchaklarni o'lchashdagi xatolikda quyidagi formula orqali aniqlanadi.

$$m_{AS} = m_s - 0,25 \cdot m_s = 15 - 2,7 = 12,3 \text{ mm.}$$


Burchaklarni o'lchashdagi xatolik m_β xatolikni talab etilgan qiymatida yuz berishi mumkin bo'lgan siljish m_{AS} yo'nalishida reperlarni aniqlash quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$m_\beta = m_{AS} \cdot \rho K/L, \quad (3)$$

bu yerda L – siljish uzunligi, m ;

K – siljishda tayanch punktdan repergacha tomonlar sonini hisobga oluvchi koefitsient, (2-rasmga muvofiq aniqlanadi).

Siljish uzunligi $L = 4500$ metr va siljish



2-rasm. Tutash siljishda tomonlar soniga (n) bog'liq bo'lgan koefitsientni (K) aniqlash uchun grafik

$$m_s = M \sqrt{n_x} = 5,6 \cdot \sqrt{4} = 11,2 \text{ mm}, \quad (2)$$

bu yerda M – siljishni bitta tomonini aniqlashning o'rtacha kvadratli xatoligi;

n_x – siljishda tomonlar soni.

tomonlarining soni $n=4$ da yuz berishi mumkin bo'lgan siljish yo'nalishida reperlar holatini aniqlashdagi ruxsat etilgan xatolik 12,3 mm ga teng, burchaklarni o'lchashdagi xatolik esa quyidagiga teng

$$m_{\beta} = \frac{12,3 \cdot 206265 \cdot 3,35}{4500000} \approx 2''.$$

Shu tariqa, poligonometriyali siljish punktlarida gorizontal burchaklarni o‘lchashni yuqori aniqlikdagi va haqiqiy teodolitlar yordamida bajarish lozim bo‘ladi.

Xulosa. Ushbu kuzatuv punkitlari karyerlarning ya’ni kon tarmog‘i hududida

o‘rnatilgan kuzatuv stansiyalari, kuzatuv vaqtлari davomida reperlarni saqlanishini ta’minlaydi. Bu esa o‘z navbatida karyer bortining va pog‘onalarning xavfsiz va barqaror ishlashini taminlaydi va shu bilan birga karyer borti cho‘kishi, nurashi, ko‘chishini va siljishlarini oldindan baholash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

- Силкин А.А., Кольцов В.Н., Шеметов П.А., Жиянов Ю.А., Иноземцев С.Б. Управление долговременной устойчивостью откосов на карьерах Узбекистана. – Ташкент: Фан, 2005. – С. 93-97.
- Исследовать устойчивость уступов и бортов карьеров и разработать мероприятия по повышению их устойчивости (Заказы 18; 2203; 127-Н; 127-У; 123-02): Отчет / ВНИМИ; рук. Ю.С. Козлов; № 022111. Л.: 1980. - С. 21-87.
- Исследования устойчивости уступов, бортов и отвалов на карьерах и разработка мероприятий по обеспечению их устойчивости (объекты заказов 127-У; 123-02; 123-13): Отчет /ВНИМИ; рук. Э.Л. Галустьян. Л.:1982. - С. 5-7.
- Leica GeoMoS 8 Руководство пользователя. Александр Дианов. - С. 2-30.
- Несмейнов Б.В. Теоретические основы, методы и средства обеспечение устойчивости карьерных откосов // Дисс. ... докт. техн. наук. – Москва, 2000. – С. 102-114.